



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2023 yil “5” iyul

01-05341 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining  
12-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«26» iyun 2023-yil

**Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a‘zolari  
(ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) bitiruvchilarining Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari.  
**Ma‘ruzachi** – O‘quv ishlari prorektori Boymurodov Shuxrat Abduljalilovich.
2. Akademiya Ilmiy kengashi faoliyati va Ilmiy kengash qarorlarini bajarilishi holati.  
**Ma‘ruzachi** – Kengash kotibi Ismailova Guli Amindjonovna.
3. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.  
**Ma‘ruzachi** – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.
4. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan ma‘qullandi

**QAROR QILADI:**

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Toshkent tibbiyot akademiyasi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari” mavzusi bo‘yicha, O‘quv ishlari prorektori Boymurodov Shuxrat Abduljalilovichning ma‘lumoti qoniqarli deb hisoblansin va axborot uchun qabul qilinsin (ma‘ruza matnda keltirilgan).

1.1. Yangi o‘quv yilida akademiyada yakuniy davlat attestatsiyasini yanada sifatli o‘tkazilishi maqsadida belgilangan test savollari, vaziyatli masalalar qayta ko‘rib chiqilishi, tahlil qilinishi va yangilanishi ta‘minlansin.

**Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o‘quv yili davomida.**

1.2. Bitiruvchi - talabalarning amaliy ko'nikmalarni bajarilishini takomillashtirish va o'zlashtirishlarini avtomatizm darajasiga yetkazish maqsadida kafedralar simulyatsion markaz imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi, shuningdek malakaviy amaliyot imtihonlarini OSKI tarzida o'tkazilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, marketing va malakaviy amaliyot bo'limi boshlig'i I.Otajonov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.3. Akademiyada yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishda bitiruvchilar tomonidan amaliy ko'nikmalarni bajarilishi audio-video aloqalari orqali namoyish etilishi yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Raqamlashtirish ta'lim texnologiyalar bo'limi boshlig'i A.K.Musaxonov.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili.**

1.4. Yangi o'quv yiliga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida barcha fanlar bo'yicha kafedralarda va simulyatsion markazda bajariladigan amaliy ko'nikmalar yakuniy ro'yxati aniq tartibga keltirilsin, shuningdek yetishmayotgan asbob-uskuna va jihozlar bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Simulyatsion kafedrasi mudiri D.A.Parpibayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.5. Bitiruvchilarning malaka talablari ish beruvchi kadr iste'molchilarining talablariga mos ravishda bo'lishini hamda mutaxassisliklar bo'yicha vertikal va gorizontal integratsiya holatining inobatga olgan holda amaliy ko'nikmalar yagona tizimga keltirilganligi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.6. Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish maqsadida barcha mutaxassislik fanlariga tegishli malaka talablari, malakaviy kompetensiya, amaliy ko'nikmalar hajmi har bir fanlar bloki bo'yicha qayta ko'rib chiqilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.7. "2023 yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da Akademiyada sifatli ta'lim tizimini kuchaytirish va yaratish hamda transformatsiya qilish maqsadida xorijiy nufuzli Oliy ta'lim muassasalari tajribasi o'rganilishi va solishtirilishi va uning natijasida barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etilishi va raqamlashtirilishi, baholash tizimi, bitiruvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari malakaviy kompetentsiyaga mosligi, professor-o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borilishi bo'yicha kerakli xulosalar olib amaliyotga tatbiq etilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.8. Yangi o'quv yilida magistratura talabalarining dissertatsiyalari hamda olingan ilmiy natijalarining chop etilishi sifatiga alohida e'tibor qaratilishi, shuningdek, mutaxassisliklar bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishda bitiruvchi magistrarning dissertasiya himoyalari audio-video aloqalari orqali namoyish etilishi yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, Raqamlashtirish ta'lim texnologiyalar bo'limi boshlig'i A.K.Musaxonov.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.9. Akademiyaning bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida diplomdan keyingi ta'lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish maqsadida seleksiya ishlari olib borilishi kuchaytirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo'yicha "Akademiya Ilmiy kengashi faoliyati va Ilmiy kengash qarorlarini bajarilishi holati" mavzusi bo'yicha kengash kotibi G.A.Ismailovning hisoboti axborot uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (1-va 2-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi.

4. Turli masalalar bo'yicha O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.To'raqulov so'zga chiqdilar.

4.1. Yangi 2023/2024 o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish maqsadida **kafedralar tomonidan quyidagi vazifalar bajarilishi ta'minlansin va keyingi Ilmiy kengashgacha (sentabr oyiga qadar) hisobot kiritilsin:**

- o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha barcha fanlar kesimida me'yoriy hujjatlar (malaka talablari, o'quv dasturlari, o'quv rejalari, sillabuslar) ishlab chiqilsin;

- fanlar kesimida zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanish holati tahlil qilinsin, chop etilishi va xarid qilinishi lozim bo'lgan o'quv adabiyotlar (jumladan, ingliz tilida) ro'yxati shakllantirilsin;

- laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy ko'nikmalarni egallash bo'yicha zarur asbob-uskuna, jihoz va reaktivlar ro'yxati shakllantirilsin;

- o'quv dasturlariga mos ravishda o'quv-uslubiy materiallar (o'quv-uslubiy majmua, o'quv-uslubiy qo'llanma, tarqatma va ko'rgazmali materiallar)ni sifatli tayyorlanishi ta'minlansin;

- ingliz tili va xorijiy guruhlar uchun me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallarni ingliz tiliga tarjima qilinishi ta'minlansin;

- maruza matnlari va videoroliklarning tayyorlanishi va yangilanishi hamda kafedralar saytiga joylashtirilishi ta'minlansin;
- Akademiyaga qarashli talabalar turar joylariga kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilarning tashriflari yo'lga qo'yilsin;
- barcha kafedralarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar faoliyati kuchaytirilsin;
- ichki turizmni rivojlantirish maqsadida professor-o'qituvchilar va talabalarni tarixiy shaharlar va muqaddas qadamjolariga turistik sayohatlari hamda turli ma'daniy obyektlarga tashriflari tashkil etilsin;
- professor-o'qituvchilarning ma'naviyat soatlarini bajarishlarida faol ishtirok etishlari ta'minlansin;
- yangi o'quv yilida kafedrada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shtatlarga ehtiyojlar shakllantirilsin.

#### **Barcha kafedra mudirlariga raqamlashtirish ishlari bo'yicha:**

- Edo.ssv.uz elektron hujjat almashinuviga barcha xodimlar kiritilishi, **raqamli imzo** olishi (hozirda tizimda pedagoglar ro'yxatdan o'tishi 50% ga bajarilgan) ta'minlansin;
- **HEMIS** tizimiga kafedra xodimlari haqidagi ma'lumotlar to'liq kiritilsin (hozirda tizimda 40% ga bajarilgan);
- **Moodle** platformasidagi kafedraning ta'lim resurslari to'liq kiritilsin va yangilansin (hozirda tizimda 70% ga bajarilgan);
- **Kafedra saytlari** yangilansin (2023-yil may oyida 12 ta kafedra, 2023-yil iyunga qadar 9 ta kafedraning saytdagi ma'lumotlari yangilangan);
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining topshirig'iga binoan Akademiya professor-o'qituvchilari quyidagilarda o'z profillarini ochishlari va yangilab borishlari ta'minlansin: ORCID, ResearchGate, Publon, Mendeley, Academia.edu va h.

4.2. Akademiya huzuridagi yangi 14.00.13–Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha Ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash raisi t.f.d. R.J.Matmurodov Ilmiy kengash a'zoligiga kiritilsin.

4.3. 2023-yil ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida o'tkazilgan fundamental loyihalar tanlovi g'oliblari professor **Sh.A.Boymurodov** ("Autologik fibrin membranalar yordamida yonoq-orbital kompleksi jarohatlarini bartaraf qilish" mavzusidagi loyiha), professor **Sh.I.Giyasov** ("Производство и эффективность имплантата из биоразлагаемых градиентных магниевых сплавов" mavzusidagi loyiha) pul mukofoti bilan taqdirlansin.

4.4. Bolalar kasalliklari kafedrasini tomonidan taqdim etilayotgan "Bolalarda differentsiallashtirilmagan biriktiruvchi to'qima displaziyasini tashxislash uchun yangi innovatsion texnologiyani ishlab chiqish" nomli loyiha (loyiha rahbari: t.f.n., dotsent D.T.Abdullayeva) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tavsiya etilsin.

4.5. Akademiyaning Start-app **UniHostel** - loyihasi (OTMda talabalarni talabalar turar joyiga onlayn joylashish va ularni nazorat qilish imkonini yaratadi) (Loyiha rahbari: raqamli ta'lim texnologiyalarni joriy etish bo'limi boshlig'i X.A.Muxiddinov) tasdiqlansin.

4.6. Akademiya tomonidan doktoranturaga ajratilgan kvotalarga quyidagi nomzodlar:

- **Jabborova Ma'mura Ismatullo qizi**- normal va patologik fiziologiya yo'nalishi bo'yicha tayanch doktoranturaga; Ilmiy ishi mavzusi "Zaharlanishda o'tkir buyrak xastaliklarini erta tashxislash usullari va metabolik himoya" (Ilmiy rahbar- B.O'.Irisqulov);

- **Mirzaeva Matluba Akbarali qizi**-normal va patologik fiziologiya yo'nalishi bo'yicha tayanch doktoranturaga; Ilmiy ishi mavzusi "Ayollarda metabolik sindrom fonida rivojlangan sut bezi saratonida tsitokin profili" (Ilmiy rahbar- B.O'.Irisqulov);

- **Qayumov Javohir Shovvoboy o'g'li** -travmatologiya va ortopediya yo'nalishi bo'yicha tayanch doktoranturaga; Ilmiy ishi mavzusi "Postkovid etiologiyali son suyagi boshchasi avaskulyar nekrozini erta bosqichlarda davolashning turli usullarini samaradorligini qiyosiy tahlil qilish" (Ilmiy rahbar- M.Yu.Karimov) - **tasdiqlansinlar.**

4.7. 2023-yil 9-iyul kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida akademiyaning professor-o'qituvchilari, xodimlari hamda talabalarining faol ishtirok etishlari ta'minlansin.

4.8. 2023/2024 o'quv yili uchun barcha bakalavriatura va magistratura ta'lim yo'nalishlarining ishchi o'quv rejalari, kredit-modul o'qitish tizimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 16 iyuldagi 311-sonli buyrug'i asosida tayyorlangan 2-3-4-5-6 kurs fan (modul) dasturlari, sillabuslari, 4-5-6 kurs fan (modul)ning ishchi o'quv dasturlari tasdiqlansin va o'quv jarayoniga tadbiq etilsin.

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o'z ishini yakunladi.**

**Rektor**



**A.Shadmanov**

Ijrochi: G.Ismailova  
ID: 444657  
Sana: 05.07.2023